



UDK:528.9:656

Ravshan MAXAMADALIYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, geografiya fanlari nomzodi
Arislanbek ATABAYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti stajyor-o'qituvchisi
E-mail: atabaev2025@gmail.com
Shaxzodbek AKBARALIYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti magistranti
E-mail: shaxzodbek26061972@gmail.com

O'zMU dotsenti U.Egamberdiyeva taqrizi asosida

VILOYAT TUMANLARINI O'RGANISHNING IQTISODIY VA IJTIMOIIY GEOGRAFIK JIHATLARI (BULOQBOSHI TUMANI MISOLIDA)

Annotatsiya

Mazkur maqolada viloyat tumanlarini iqtisodiy va ijtimoiy geografik jihatdan o'rganish masalalari Buloqboshi tumani sanoati tahlil qilinadi. Tadqiqotda hududning iqtisodiy salohiyati, xo'jalik tarmoqlarining hududiy joylashuvi, shuningdek, ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanish darajasi yoritilgan. Shuningdek, tumanning iqtisodiy ixtisoslashuvi, resurs salohiyati va hududiy rivojlanish omillari tahlil qilinib, ularning o'zaro bog'liqligi ochib beriladi. Olingan natijalar hududiy rivojlanishni takomillashtirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash hamda ijtimoiy sohalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy geografiya, hududiy rivojlanish, infratuzilma, iqtisodiy salohiyat, Buloqboshi tumani.

Аннотация

В статье рассматриваются экономико - и социально-географические аспекты изучения районов области на примере Булакбашинского района. Проанализированы экономический потенциал территории, территориальная организация отраслей хозяйства, а также уровень развития социальной инфраструктуры. Особое внимание уделяется специализации района, его ресурсному потенциалу и факторам территориального развития. Полученные результаты позволяют обосновать направления совершенствования регионального развития и повышения социальной и экономической устойчивости.

Ключевые слова: экономическая география, территориальное развитие, инфраструктура, экономический потенциал, Булакбашинский район.

Abstract. This article examines the economic and socio-geographical aspects of studying regional districts using Buloqboshi district as a case study. The research analyzes the economic potential of the area, spatial organization of economic sectors, as well as the level of development of social infrastructure. Special attention is given to the district's specialization, resource potential, and key factors of territorial development. The findings provide a basis for improving regional development strategies and strengthening socio-economic stability.

Keywords: economic geography, regional development, infrastructure, economic potential, Buloqboshi district.

Kirish. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya hududlarning tabiiy, iqtisodiy va demografik xususiyatlarini o'rganish orqali ularning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Ayniqsa, viloyat tumanlarini kompleks tarzda tadqiq etish hududiy rivojlanish darajasini baholash, mavjud resurslardan samarali foydalanish hamda istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududiy tizimda tumanlar iqtisodiyotning boshlang'ich bo'g'ini hisoblanib, ularda ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvi, aholi joylashuvi, infratuzilma va ijtimoiy sohalarining rivojlanish darajasi yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bois, tumanlarni iqtisodiy va ijtimoiy geografik jihatdan o'rganish nafaqat ilmiy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lib, hududiy siyosatni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bunda, sanoat tarmoqlarining rivojlanish darajasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Sanoat tuman iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri bo'lib, u ishlab chiqarish hajmining oshishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi va aholi daromadlarining ko'payishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, sanoatning hududiy tashkil etilishi, uning tarmoqlar bo'yicha tarkibi va ixtisoslashuvi tuman iqtisodiy salohiyatini belgilovchi muhim mezonlardan hisoblanadi[1].

Sanoat moddiy ishlab chiqarish tarmoqlaridan biri bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy tizimning turli darajalarida uning rivojlanishi va hududiy tashkil etilishida yetakchi o'rin egallaydi. Sanoatning rivojlanishi, xomashyo resurslariga bo'lgan ehtiyojining ortishi hamda mahsulotlarni realizatsiya qilish bozorlarining kengayishi jahon savdosi, transport va xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishini rag'batlantirdi, urbanizatsiya jarayonlarini tezlashtirdi va insoniyatning yashash sharoiti hamda turmush tarzida tub o'zgarishlarga olib keldi.

O'zbekiston iqtisodiy geografiya maktabi vakili A.Soliyev sanoat tarmoqlari bo'yicha shunday tarif bergan edi: "Sanoat tarmoqlari ma'lum mezonlar asosida shakllanadi. Tarmoqlar xomashyo birligi, mahsulotning qanday maqsadda yaratilganligi hamda texnologik jarayonning umumiyiligi asosida ajratiladi" deya ta'riflaydi [1].

Asosiy qism. Bulqoboshi tumani tarixan qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan hududlardan biri hisoblanadi. Biroq so'nggi yillarda ishlab chiqarish infratuzilmasining kengayishi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faolligining ortishi natijasida sanoat yo'nalishida ma'lum siljishlar kuzatilmoqda. Tumanda, avvalo, mahalliy xomashyoga asoslangan qayta ishlash korxonalari, qurilish materiallari ishlab chiqarish hamda oziq-ovqat sanoati shakllanib bormoqda. Bu jarayon iqtisodiy tuzilmaning bosqichma-bosqich murakkablashuvi va yangi ishlab chiqarish zanjirlarining paydo bo'lishi bilan tavsiflanadi.

Shu bilan birga, sanoat tarmoqlarining tarkibiy nisbatlari, ularning hududiy joylashuvi va iqtisodiy samaradorligi masalalari hali ham yetarlicha o'rganilmagan. Ayrim tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmining o'sishi kuzatilayotgan bo'lsa-da, yuqori qo'shilgan qiymat yaratish, texnologik yangilanish va investitsion faollik darajasi bo'yicha muayyan muammolar mavjud. Bu esa sanoatni tizimli tahlil qilish va rivojlanish omillarini chuqurroq o'rganishni talab etadi.

Mavjud statistik ko'rsatkichlar Bulqoboshi tumanida sanoat ishlab chiqarishining bir maromda emas, balki vaqt davomida shakllanib borgan jarayon ekanini ko'rsatadi. Ilk bosqichlarda sanoat hajmining nisbatan past bo'lishi hudud iqtisodiyotida agrar yo'nalish ustun bo'lganini anglatadi. Jumladan, sanoat mahsulotlari hajmining 2016-yilda 149,4 mlrd so'm darajasida qayd etilishi tumanda sanoat faoliyati hali asosiy iqtisodiy drayver sifatida shakllanmaganidan dalolat beradi.

1-jadval

Tumanlar bo'yicha sanoat mahsuloti hajmi (amaldagi narxlarda; mlrd .so'm)

	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.
Andijon viloyati	7 965,7	13 269,8	27 454,7	33 122,3	36 376,5	35 935,3	54 352,5	73 767,1	90 626,6	73 385,7
Andijon shahri	1 960,6	2 594,4	4 353,9	4 900,3	5 871,9	6 038,0	8 237,0	10 445,9	13 202,4	11 770,7
Xonobod shahri	402,3	604,8	948,2	1 181,8	1 250,9	1 900,7	2 491,4	2 986,1	3 201,9	2 905,1
tumanlar:										
Oltinko'l	304,2	370,1	461,9	494,8	671,1	729,3	640,0	1 253,4	1 824,1	1 486,5
Andijon	426,0	528,8	727,8	777,5	942,4	984,8	1 092,1	1 512,8	1 720,4	1 693,7
Baliqchi	383,9	404,8	517,1	666,9	767,9	1 296,1	1 512,7	2 119,4	3 417,1	2 626,8
Bo'ston	116,2	97,5	148,2	281,6	333,3	329,3	419,8	522,8	721,5	702,4
Bulqoboshi	149,4	167,8	198,4	272,4	329,0	306,0	377,3	476,5	908,6	1 707,6
Jalaquduq	246,7	321,2	414,4	473,7	746,4	889,6	1 169,2	1 578,4	1 974,2	1 643,3
Izboskan	212,3	338,3	461,8	392,9	833,7	965,8	1 192,0	956,3	1 331,2	1 414,8
Ulug'nor	88,9	90,5	145,4	187,9	257,1	396,4	445,4	539,6	772,4	842,8
Qo'rg'ontepa	252,6	238,0	330,8	738,1	969,2	1 393,7	2 174,4	2 728,1	3 702,4	2 937,4
Asaka	2 368,7	6 286,8	17 111,7	20 778,2	20 753,0	17 487,7	29 503,3	42 522,9	44 868,3	29 929,3
Marhamat	190,8	202,0	264,8	331,5	406,2	436,0	596,5	752,1	1 085,3	1 705,8
Shahrixon	446,6	532,9	657,7	698,7	813,7	1 132,4	1 547,9	1 451,2	2 021,4	2 280,7
Paxtaobod	124,5	123,7	164,9	349,3	544,0	591,6	728,7	965,4	1 183,8	1 479,4
Xo'jaobod	292,0	368,4	547,8	596,5	886,6	1 057,9	2 224,8	2 956,2	3 772,9	2 839,9

Jadval, Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Keyingi yillarda kuzatilgan o'sish jarayoni keskin sakrashlar bilan emas, balki asta-sekinlik bilan amalga oshgan. 2017–2019 yillar oralig'ida sanoat ishlab chiqarish hajmi miqdor jihatdan sezilarli darajada oshmagan bo'lsa-da, aynan shu davr sanoat infratuzilmasining shakllanishi va ishlab chiqarish subyektlari sonining ko'payishi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Mazkur jarayonlar natijasida 2019-yilga kelib sanoat mahsulotlari hajmi 272,4 mlrd so'mga yetib, sanoatning hududiy iqtisodiyotdagi roli asta-sekin kuchaya boshlagan (1-jadval).

Keyingi bosqich, ya'ni 2020 – 2021-yillar sanoat rivojlanishida barqarorlikni saqlab qolish davri sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yillarda tashqi iqtisodiy omillar ta'siriga qaramay, ishlab chiqarish hajmlarining keskin pasayib ketmasligi sanoat tizimining moslashuvchanligini ko'rsatadi. Bu davrda sanoat o'sishi yangi quvvatlar hisobiga emas, balki mavjud ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishni saqlab qolish orqali ta'minlangan.

Sanoat rivojida tub burilish keyingi yillarda yuzaga kelgan bo'lib, bunga tuman hududida yirik sanoat obyektlarining ishga tushirilishi sabab bo'lgan. Xususan, Shirmonbuloq va Nayman mahalla fuqarolar yig'inlari hududida sement ishlab chiqarish korxonalarining barpo etilib, mahsulot bera boshlashi sanoat hajmlarining tez sur'atlarda oshishiga kuchli turtki bo'ldi. Ushbu korxonalar nafaqat qurilish materiallariga bo'lgan ehtiyojni qondirdi, balki sanoat ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining keskin o'sishiga ham sabab bo'ldi.

Natijada sanoat mahsulotlari hajmi 2024-yilga kelib 908,6 mlrd so'm darajasiga yetib, sanoat tuman iqtisodiyotida ikkinchi darajali soha emas, balki muhim rivojlanish omiliga aylanganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, sement ishlab chiqarish atrofida shakllangan kooperatsion aloqalar transport, logistika va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining faollashuviga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi[4].

So'nggi davr ma'lumotlari, xususan 2025-yilning dastlabki to'qqiz oyi yakunlari, sanoat rivojlanishi yangi tezlashuv bosqichiga o'tayotganini tasdiqlaydi. Ushbu davrda 1 707,6 mlrd so'mlik sanoat mahsulotining ishlab chiqarilishi sanoatning hududiy iqtisodiyotdagi ulushi sezilarli darajada kengayayotganini anglatadi. Bunda Shirmonbuloq va Nayman MFYlarida joylashgan sement zavodlarining to'liq ishlab chiqarish rejimiga yaqinlashgani asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qilgan.

Umumiy xulosa shundan iboratki, Bulqoboshi tumanida sanoat rivojlanishi to'g'ri chiziqli emas, balki bosqichma-bosqich va sifat jihatidan yangilanib boruvchi jarayon sifatida kechgan. Past boshlang'ich bazadan yo'lga qo'yilgan sanoat faoliyati vaqt o'tishi bilan hudud iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Ayniqsa, yirik sement ishlab chiqarish korxonalarining ishga tushirilishi tumanning iqtisodiy ixtisoslashuvida sanoat omilining keskin kuchayishiga olib kelib, kelajakda hududning sanoatga yo'naltirilgan rivojlanish modeliga o'tish ehtimolini yanada mustahkamlamoqda.

2024-yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi 750,1 mlrd, so'm bo'lib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 69,3 % ni tashkil etgan (1-rasm).



1- rasm. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi (% da)

Buloqboshi tumani statistika bo'limi tomonidan olingan ma'lumotlarga asosanib muallif tomonidan tuzildi.

Diagrammada Buloqboshi tumani bo'yicha faoliyat yuritayotgan xo'jalik subyektlarining tarkibi yirik guruhlar kesimida aks ettirilgan. Unda jami faol korxonalarning taxminan 70 foizi (diagrammadagi katta sariq sektor) xizmatlar sohasi hissasiga to'g'ri kelishini ko'rish mumkin. Bu guruh tarkibiga savdo, boshqa turdagi xizmatlar, yashash va ovqatlanish, sog'liqni saqlash hamda axborot va aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar kiradi. Mazkur ko'rsatkich tumanda iqtisodiy faollik asosan xizmatlar sektori orqali shakllanayotganini ko'rsatadi.

Diagrammadagi taxminan 30 foizlik ulushni (yashil sektor) real sektor tarmoqlari, ya'ni sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish hamda tashish va saqlash sohalarida faoliyat yuritayotgan korxonalar tashkil etadi. Ushbu ulush real ishlab chiqarish tarmoqlari tumanda mavjud va barqaror faoliyat ko'rsatayotganini, biroq xizmatlar sohasi bilan solishtirganda ularning ulushi nisbatan past ekanini ifodalaydi.

2-jadval

Buloqboshi tumanida faoliyat olib borayotgan qurilish sanoat korxonalari (2024-yil hisobiga)

Korxonalar nomi	Mahsulot birligi	Hajmi	Miqdori (ming so'mda)	Ishchilar soni
Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi "Shirmonbuloq tosh koni" davlat unitar korxonasi	t	72286	731705	23
"Nurjaxonbegim" MChJ	t	89238	956724	25
"Shodlik sirlari" MChJ	t	25495	218970	10
"Kulla javohiri" xususiy korxonasi	t	1179	40089	2
"Behzod shaxzod orzusi" MChJ	t	41825	648295	9
"Azim tosh rivoji" MChJ	t	633	8137	4
"Shunda-ravnaqi" MChJ	t	33167	854841	3
"Nayman mel" MChJ	t	1000	1059282	23
"Kelajak magistrali" MChJ	t	157270	3785504	26
"Step to future" MChJ	t	9020	712615	5
"Don-xolm" MChJ	ming dona	6438	2520544	27
"Standart g'isht" MChJ	ming dona	4314	762411	21
"Nektar agro" MChJ	t	272	37850	15
"Mirzakarim kozim" xususiy korxonasi	t	3,2	5612	1
"Moviy dengiz mahsuloti" MChJ	t	840	92600	5
"Oniks marmar umid" xususiy korxonasi	t	54,3	272048	21
"Tabiiy tosh" MChJ	t	138,625	151937	10
"Olmosbek marmarlari" MChJ	t	1	5210	1
"Sarbontepa marmar toshlari" MChJ	t	3,19	12750	1
"Murodjon toglari" MChJ	t	19077	257542	13
"Azim rivoj" MChJ	t	8,9	7000	1
"Kelajak magistrali" MChJ	ming so'm	5246205	5246205	26
"Buyuk kelajak" xususiy korxonasi	t	40,1	42739	2

Jadval, Buloqboshi tumani statistika bo'limi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Jadvalda qishloq xo'jaligi hamda qurilish materiallari ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar faoliyatining ishlab chiqarish hajmi, mahsulot qiymati va bandlik ko'rsatkichlari aks ettirilgan. Xususan, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi "Shirmonbuloq tosh koni" davlat unitar korxonasi tomonidan yil davomida 72 286 tonna mahsulot ishlab chiqarilib, uning umumiy qiymati 731 705 ming so'mni tashkil etgan hamda ushbu korxonada 23 nafar xodim band bo'lgan. Mazkur ko'rsatkichlar davlat korxonalarining hududiy ishlab chiqarish salohiyatida muhim o'rin egallashini ko'rsatadi.

Xususiy sektor vakillari orasida "Nurjaxonbegim" mas'uliyati cheklangan jamiyati ishlab chiqarish hajmi jihatidan yetakchi o'rinlardan birini egallab, 89 238 tonna mahsulot ishlab chiqargan va bu mahsulotlarning qiymati 956 724 ming so'mga teng bo'lgan. Korxonada 25 nafar ishchi faoliyat yuritishi uning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatini ham oshiradi. Shunga yaqin ko'rsatkichlar "Keljak magistrali" MChJ faoliyatida ham kuzatiladi. Ushbu korxona tomonidan 157 270 tonna mahsulot ishlab chiqarilib, qiymat jihatidan 3 785 504 ming so'mlik natijaga erishilgan hamda 26 nafar xodim ish bilan ta'minlangan (2-jadval).

O'rta hajmdagi korxonalar misolida "Shodlik sirlari" MChJ tomonidan 25 495 tonna mahsulot ishlab chiqarilib, 218 970 ming so'mlik iqtisodiy natija qayd etilgan va 10 nafar ishchi band bo'lgan. Shuningdek, "Behzod Shaxzod orzusi" MChJ ishlab chiqarish hajmi 41 825 tonna, mahsulot qiymati esa 648 295 ming so'mni tashkil etib, korxonada 9 nafar xodim mehnat qilgan.

Kichik ishlab chiqarish subyektlari orasida "Kulla javohiri" xususiy korxonasi tomonidan 1 179 tonna mahsulot ishlab chiqarilib, 40 089 ming so'mlik mahsulot yaratilgan va 2 nafar xodim band bo'lgan. Shunga o'xshash holat "Azim tosh rivoji" MChJ faoliyatida ham kuzatilib, ishlab chiqarish hajmi 633 tonna, mahsulot qiymati 8 137 ming so'm, bandlik esa 4 nafar ishchi bilan ifodalangan.

Qurilish materiallari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar ichida "Nayman mel" MChJ alohida ajralib turadi. Ushbu korxona tomonidan 1 000 tonna mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa-da, mahsulot qiymati 1 059 282 ming so'mni tashkil etgan va 23 nafar xodim faoliyat yuritgan. Bu holat mahsulotning bozor qiymati va qo'shilgan qiymat darajasi yuqoriligini ko'rsatadi. Shuningdek, "Standart g'isht" MChJ tomonidan 4 314 ming dona g'isht ishlab chiqarilib, 762 411 ming so'mlik mahsulot yetishtirilgan hamda 21 nafar ishchi band bo'lgan[4].

Tabiiy tosh va marmar qazib olish yo'nalishida faoliyat yurituvchi "Oniks marmar umid" xususiy korxonasi tomonidan 54,3 tonna mahsulot ishlab chiqarilib, 272 048 ming so'mlik qiymat yaratilgan va 21 nafar xodim ish bilan ta'minlangan. Shu bilan birga, "Tabiiy tosh" MChJda 138,6 tonna mahsulot ishlab chiqarilib, 151 937 ming so'mlik iqtisodiy natija qayd etilgan hamda 10 nafar ishchi band bo'lgan.

Bu holat Buloqboshi tumani iqtisodiyotida sanoatning uzoq vaqt davomida ikkilamchi yo'nalish sifatida shakllanib kelgani, ishlab chiqarish infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmagani hamda investitsiya oqimlarining cheklanganligi bilan izohlanadi. Dastlabki yillarda sanoat mahsuloti hajmining nisbatan past darajada bo'lishi hudud iqtisodiyoti asosan agrar yo'nalishga tayanganini ko'rsatadi. Masalan, 2016-yilda sanoat ishlab chiqarishi 149,4 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda o'sish asta-sekinlik bilan yuz bergan. 2019-yilga kelib bu ko'rsatkich 272,4 mlrd so'mga yetgan, biroq sanoat hali iqtisodiy drayver darajasiga chiqmagan edi.

Keyingi yillarda, ayniqsa yirik ishlab chiqarish obyektlarining ishga tushirilishi natijasida vaziyat tubdan o'zgara boshladi. 2024-yilda sanoat mahsulotlari hajmining 908,6 mlrd so'mga yetishi va 2025-yilning dastlabki to'qqiz oyida 1 707,6 mlrd so'mlik natijaning qayd etilishi sanoatning hudud iqtisodiyotidagi ulushi sezilarli darajada ortganini anglatadi. Shu bilan birga, 2024-yilda kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 750,1 mlrd so'mni tashkil etib, jami sanoat hajmining 69,3 foizini egallagan sanoat rivojlanishida tadbirkorlikning hal qiluvchi rol o'ynayotganini ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, sanoat tarmog'ining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini yanada takomillashtirish, mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, kichik va o'rta sanoat subyektlarini moliyaviy hamda texnologik jihatdan qo'llab-quvvatlash va tarmoqlararo kooperatsiyani rivojlantirish orqali ichki sanoat zanjirlarini mustahkamlash kabilar muhim hisoblanadi.

Xulosa. So'nggi yillarda Buloqboshi tumanida sanoat ishlab chiqarishi sifat va miqdor jihatidan sezilarli o'sish bosqichiga kirgan. 2016-yildagi 149,4 mlrd so'mlik hajmdan 2024-yilda 908,6 mlrd so'mga, 2025-yilning qisqa davrida esa 1 707,6 mlrd so'mga yetgan ko'rsatkichlar hudud iqtisodiyotida tarkibiy siljishlar yuz berayotganini anglatadi. Ayniqsa, yirik sement ishlab chiqarish korxonalarining faoliyat boshlashi sanoatning keskin faollashuviga sabab bo'ldi. Shu bilan birga, kichik biznesning yuqori ulushi sanoatning ko'p tarmoqli va moslashuvchan shakllanayotganini ko'rsatadi. Bu jarayonlar hudud iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Kelgusida texnologik modernizatsiya, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va investitsion muhitni yaxshilash orqali tumanning sanoat salohiyatini yanada mustahkamlash imkoniyati mavjud.

ADABIYOTLAR

1. Soliyev A.S.. O'zbekiston geografiyasi (O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi) / Darslik. - T.: Universitet, 2014. – 404 b.
2. Egamberdiyeva U.T. . Sanoat geografiyasi. -T.: «Fan va texnologiya», 2019, 224 bet.
3. Sarikulov M.O., Rahmonova O.O. Buloqboshi tumani sanoat tarmoqlari iqtisodiy ko'rsatkichlari va hususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo'llab quvvatlash chora tadbirlari. Экономика и социум, (3-1 (118)), 2024. 366-372.
4. Eshanqulov B.A. Yangi O'zbekiston savdo-iqtisodiy munosabatlarida tovarlar eksporti tahlili. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (11), 2024. 436-448.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2010-2025 yillardagi ma'lumotlari.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining Andijon viloyati boshqarmasi ma'lumotlari, 2025 yil.